

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOLIQOV YUNUS ORTIQOVICH

**O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHDA BAG‘RIKENGLIKNING AXLOQIY ASOSLARI**

09.00.02 – Omg, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika)

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора наук (DSc)

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation

Xoliqov Yunus Ortiqovich

О‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda bag‘rikenglikning axloqiy asoslari 3

Xolikov Yunus Ortikovich

Этические основы толерантности в развитии межэтнической культуры в Узбекистане.....31

Kholikov Yunus Ortikovich

Ethical foundations of tolerance in the development of inter-ethnic culture in Uzbekistan.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 60

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOLIQOV YUNUS ORTIQOVICH

**O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHDA BAG‘RIKENGLIKNING AXLOQIY ASOSLARI**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (etika)

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/Fal95 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich**
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: **Samadov Aktamkul Rafikovich**
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Qoraboyev Usmon Xosilovich
falsafa fanlari doktori, professor

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna
falsafa fanlari doktori(DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; ye-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xalqlari madaniyatida ma'naviy hodisa sifatida muhim o'rin tutgan bag'rikenglik fenomeni hozirgi globallashuv sharoitida alohida falsafiy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy shu bilan birga sinovdan o'tgan tajribalarga asoslanib tahlil etish talab etmoqda. Postmodernistik sotsiumda umuminsoniy qadriyatlardan, ma'naviy o'ziga xoslikning inqirozidan xavotirga tushmoqda. Bu hayot mazmunini to'g'ri anglamaslik, vayronkorlikka moyillik, o'zaro munosabatlarda tajovuzkorlikni uyg'otuvchi illatga aylanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugun millatlararo madaniyat postmodern makonning global tendensiyasiga asoslangan bo'lib, unda shaxs o'zini namoyon qilishi va o'zining umumiy ehtiyojlari kontekstida axloqiy qarama-qarshiliklarni yengib borishi vujudga kelmoqda. Zamonaviy millatlararo madaniyatning rivojlantirilishi, har bir insonning o'zini namoyon qilishini ta'minlaydigan plyuralistik axloqiy munosabatlarning takomillashtirishini talab qilmoqda.

Dunyo ilm-fanida millatlararo madaniyatlar o'rtasidagi muloqotlar va integratsiya muhim bo'lib, global yangiliklarda qo'llanilib, turli millatlar va madaniyatlar orasidagi aloqalar yanada kuchliroq va osonroq kechisiga sabab bo'lmoqda. Mazkur harakatlar, o'z navbatida bag'rikenglik, madaniyatning bog'lanishida axloqiy tafakkurning muhim ahamiyatga ega bo'lishini bildiradi. Bugungi kunda bag'rikenglikka oid tadqiqotlar globallashuv sharoitida millatlararo madaniyatlar integratsiyasi benihoyat faollashgani, ularning unifikatsiyasi tobora yorqinlashayotganini ko'rsatib bermoqda. Bularning barchasi millatlararo madaniyatda bag'rikenglik tamoyillarini rivojlantirish va uning muammolarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu ma'noda hozirgi globallashuv jarayoni kechayotgan bir davrda yoshlarning millatlararo bag'rikenglik tafakkurini yuksaltirishda milliy, madaniy, umuminsoniy qadriyatlar rolini oshirish, ulardan samarali foydalanish tamoyillari va mezonlarini tadqiq qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda shaxslararo axloqiy bag'rikenglik madaniyatini ma'rifatparvarlik, insonparvarlik tamoyillari asosida hurmat qilish, shuningdek, ularni qabul qilish davlat strategik taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jamiyat ko'p millatli ekan, ular orasida bahamjihatlikni o'stirish, totuvlikni ta'minlash, bu yo'lda o'ziga xos ustuvor yo'nalishlarni belgilab chiqish va tinimsiz mehnat qilish, yurtimizning kelajagini ta'minlashda, rivojini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu yo'lda yurtboshimiz boshchilgida, kelajagimiz avlodlarini har taraflama bilimli, uzoqni ko'ra biladigan, eng asosiysi, barcha sohada yakdil, yetakchi bo'lish kabi hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan yetuk kadr etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatayotgani quvonarli hol, albatta¹. Shu sababli fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda o'zga madaniyatni hurmat qilishlikni rivojlantirish, madaniyatlararo bir-birlarini

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир // 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 455.

tushunish, qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va ular ongiga singdirish bilan bog‘liq tadqiqotlar muhim hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari va 2017-yil 23-maydagi PQ-2993-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan ilm maskanlari yaxlit tadqiqotlar uchun bugun oliy ta‘lim muassasalari sifatida bag‘rikenglik madaniyatining aksiologik qirralarini targ‘ib qilish, voqelikda sinergetik yondashuvni tadrijiylik bilan shaxslararo munosabatlarni ifodalashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borishga yo‘naltirilgan. Bu sohalardagi ilmiy rivojlanishlar natijasida shuni ko‘rishimiz mumkinki, jamiyatda nozik tafakkur bilan millatlararo madaniyatni kuchaytirish, turli etnoslar o‘rtasida tinchlikni mustahkamlash va ularning kelgusidagi taqdiriga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Institute of Humanities and Social Sciences (Polsha), Leiden University Centre for the Study of Islam and Society (Niderlandiya), University of Plymouth UK, (Angliya), The Modern Aesthetic Education Research Center (Pekin, Xitoy), (Western Michigan University, The University of Arizona (AQSh), Sankt Peterburg davlat universiteti, Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya), O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universitetlari (O‘zbekiston)da tizimli olib borilmoqda.

Dunyoda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatining uzluksizligini ta‘minlash insoniyat taraqqiyotidagi muhim axloqiy mezoni sifatida rivojlantirish masalasi bo‘yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: har bir hududning etnik tarkibini o‘rganishda

¹ Диссертация бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи <https://www.youtube.com/>; <https://www.iz.ru/>; <https://www.kubnews.ru/>; www.dissercat.com/; <https://ru.wikipedia.org/>; <https://www.finland.fi/ru/>; <https://dic.academic.ru/>; <https://www.centraleurasia.org/>; <https://ru.wikipedia.org/>; <https://www.socionauki.ru/>; <https://www.labirint.ru/>.

millatlararo bag'rikenglikning amal qilish mexanizmlari, unda davlatlarning xalqaro axloq normalariga rioya etishi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan (Institute of Humanities and Social Sciences, Polsha); ijtimoiy hayotdagi diniy e'tiqodga mos bag'rikenglikning pozitiv tomonlari ochib berilgan (University Centre for the Study of Islam and Society, Niderlandiya); globallashtirishning adabiyot va san'at asosida bag'rikenglik madaniyatiga axloqiy ta'siri ijtimoiy omillar negizida aniqlangan (Public university in Plymouth United Kingdom); falsafiy analizlar bag'rikenglik madaniyati va yoshlarning axloqiy ideali o'rtasidagi birgalikda rivojlanish tendensiyalarini ochib bergan (The Modern Aesthetic Education Research Center, Pekin, Xitoy); bag'rikenglikning inson borlig'ida voqelik bilan integrastiyalashuvi, mavjudlikning axloq tamoyillarida aks etishi ifodalangan (Colleges of WMU); jahon ta'lim standartlarida bag'rikenglik tamoyili ta'limning mazmuni uchun bosh mezon bo'lishi, uning millatlararo madaniyat tizimida qo'llanilish sohalari falsafiy dunyoqarashga uyg'un tadqiq etilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi MDU); bag'rikenglikning falsafiy asosli elementlari insoniy axloqiy ideal bilan millatlararo birdamlikda o'z aksini topadi (O'zbekiston Milliy universiteti, SamDU universitetlari, O'zbekiston).

Dunyoda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda bag'rikenglikning axloqiy tamoyillarini o'rganish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: falsafiy yo'nalishlarda tizimli nazariy tadqiqotlar yo'lga qo'yilganligi natijasida shu zaminda umrguzaronlik qilayotgan har bir elat va millatlarning millatlararo bag'rikenglik madaniyatini tadqiqotlar orqali takomillashtirish; insonga ongli va qadri qadriyat sifatida yondashish, uning mukarram zot sifatida bag'rikenglikka amal qilish imkoniyatlari; jamiyatda bir-biri bilan axloqiy rishtalar hosil qiluvchilarning bu fazilatlaridagi o'zgarishlarni tan olish; millatlararo bag'rikenglik madaniyatining axloq tuzilmasidagi interaktiv potensial imkoniyatlarini mushohadalash; yer yuzi aholisining hamjamiyat, hamfikir bo'lib bag'rikenglikka yondashuvining hoziri va ertasini uzluksiz ana'anaviy metodlarda tadqiq etish; global miqyosda xolisona axloqiylikka turg'un munosabat bilan bag'rikenglik madaniyatining o'sishiga o'zaro ta'sir doirasini tasniflash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Insonning hayvonot olamidani ajralib, voqelikda madaniyatni vujudga keltirishi va asta-sekin borliqdagi narsa va hodisalarga qiymat berishi jamiyatning mukammal shaklga o'tishiga, millatlarning xilma-xil yashashini birlashtirishga sharoit yaratgan. "Bunda jamiyatlar o'zaro tushunish va hamkorlikni chuqurlashtirish, madaniy muhitini kengaytirish, ma'naviy-madaniy taraqqiyotini oshirish maqsadida boshqa etnik madaniyatlarni o'rgangan"¹. Bu tarzda, ular jamiyatlararo madaniyatning o'sish jarayonini rivojlantirishda o'z hissalarini o'rnatdilar. Xususan, qadimgi davrda Mesopotamiyada "Xamurapi qonunlari", Xitoyda Konfutsiy ta'limoti, hindlarda "Mahabhorat", "Ramayana" dostonlari, Markaziy Osiyoda "Avesto"da o'ziga xos

¹ Конституционное право России. Учебный курс (Авакьян С.А.) (учебное пособие в двух томах, том второй; издание седьмое, перераб. и доп.). – Норма: ИНФРА –М, 2021.

millatlararo bag‘rikenglik hodisaning barqarorligini ta‘minlash asosi bo‘lib xizmat qilgan. Keyinchalik bu masala bo‘yicha shug‘ullangan taniqli chet ellik olimlar qatorida D.Lokk, J.J.Russo, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turiman, L.Drobijeva, A.Karnishev U.Altermatt B.Freyxof, Y.Altermatlar millatlararo madaniyat va bag‘rikenglikning axloqiy jarayonlari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bu jarayonda millatlararo munosabatlarning teng huquqlilikka asoslangan zamonaviy tendensiyalarning o‘rnatilishi natijasida qo‘yilgan maqsad sari intilish mumkin ekanligini ochgan. “Bag‘rikenglik to‘g‘risida”gi risolasida amerikalik tadqiqotchi D.Truman¹ yozganidek, jamiyatni tanazzuldan saqlab qolish va barqarorlikni ta‘minlash bu faqat ochiq jamiyatning mezoni bo‘lib bag‘rikenglik bilan bog‘liqligini yoritib bergan. Nemis faylasufi va sotsiologi Maks Veberning ta‘kidlashicha, “Millat tushunchasi” empirik umumiy sifatlar orqali aniqlab bo‘lmaydigan va o‘ziga xos qarashlarni o‘zida jamlagan uyushmaga nisbatan ishlatilishini ta‘kidlaydi².

MDH olimlaridan millatlararo bag‘rikenglikning rivojlanish masalalari bilan F.Dobbler³, A.Golovastikova⁴, S.Glushkova, L.Grudsina E.Lukasheva⁵, V.Nersesyans, A.Sungurov⁶ L.P.Meshennikova, Y.V.Popovlar A.G.Absalyamova, T.Bolotina, I.Mishinalar, A.F.Shevxujev, O.Z.Arova, K.Ye.Troitskiy, A.Karnishev, A.V.Shestakova, G.V.Bezlyuleva, G.M.Shelamova⁷ kabi olimlar ham millatlararo bag‘rikenglik munosabatlariga oid o‘z asarlarida bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning falsafiy va axloqiy tafovutlari, millatlararo madaniyatning bag‘rikenglikka asoslanishida axloqiy tafakkur unsurlarini tadqiq etishgan.

Millatlararo madaniyat va bag‘rikenglikni rivojlantirishning axloqiy va falsafiy ildizlarini mustaqillik yillarida respublikamiz olimlaridan O‘.Mirzayev, I.Saifnazarov, A.Obidov, F.Abdurahmonov, M.Nurmatova, N.Abdullayeva, E.Qodirov, A.Ochildiyev, R.Murtazayeva, O.Musayev, C.Yusupova, A.Hasanov, B.Iminov, B.Karimov, S.Karimov, I.Karimov, E.Karimova, N.Mamanazarov, T.Maxmudov, A.Ochildiyev, S.Otamuratov, V.Qo‘chqorov, Z.Qodirova⁸, U.Saidov, J.To‘lanov, X.Xonnazarov, Z.Xusniddinov, X.Yunusova, E.Yusupovalar o‘rganishgan. O‘.Mirzayev: “O‘zbekistonda millatlararo totuvlik siyosatini mustahkamlashda milliy madaniy markazlar o‘rni” deb nomlangan maqolasida O‘zbekiston milliy siyosatida bag‘rikenglik tamoyillari amal qilib, “har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va suverenitetiga bo‘lgan huquqlarini tan olishi, shuningdek, millatlar va xalqlarning integratsiyasi – barcha muhim sohalar -

¹ Truman D.B. The Governmental Process. Political Interests and Public Opinion. N.Y., 1971. –P. 14.

² Троицкий К.Е. Нация и национальное государство в представлениях М.Вебера. Социологические исследования. 2016. –С. 68.

³ Добблер Ф.Дж. Словарь международного публичного права. – Тошкент: ТГЮИ, 2018.

⁴ Права человека: учебник // А.Н.Головастикова, Л.Ю.Грудцына. – Москва: Эксмо, 2006;

⁵ Лукашева. Е.А. Права человека и процессы трансформации постсоциалистического общества; // «Права человека и культура», 2015.

⁶ Сунгуров А.Ю. Культурные аспекты и правоприменительная практика в области прав человека в Латинской Америке Ниу Вшэ. серия wr18 "Права человека в современном мире". 2012. № 04

⁷ Безюлева Г.В, Шеламова Г.М. Толерантность: взгляд, поиск, решение. – Москва: 2003. – С. 58.

⁸ Қодирова. З.Р. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2006.

bu natijalar uchun zarur”¹ degan xulosaga keldi. M.Nurmatova, N.Abdullayeva “Axloqiy va estetik madaniyat” uslubiy qo‘llanmasida yoshlarni yuksak insoniy qadriyatlar: do‘stlik, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat, muhabbat, sadoqatli qilib tarbiyalashga qaratilganligini tadqiq qilgan. E.Qodirov “Yoshlarning siyosiy madaniyatining shakllanishi” deb nomlangan maqolasida yoshlarni Yurtimizda va jahonda kechayotgan global siyosiy jarayon yuzasidan fikr-mulohazalarini bildira olish qobiliyati bolalik paytida oiladan boshlanishi yaxshiroq samara berishi tahlil qilingan. A.Ochildiyev “Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar” deb nomlangan monografiyasida millatlararo madaniyatni o‘ziga xos, tushunchalardan biri ekanligini takidlab o‘tgan. R.Murtazayeva “O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik” deb nomlangan asarida hamma joyda va barcha sohada tolerantlik muhitini yaratish, shubhasiz, oson vazifa emasligini ta’kidlagan. Tadqiqotchi Q.Qabulovning “Milliy manfaatlarni uyg‘unlashtirishda tolerantlik” nomli dissertatsiyasida milliy manfaatlarning tolerantlikdagi ijtimoiy xususiyatlari, tadqiq etilgan bo‘lsa, Sh.Samanovanning “Ekologik tolerantlikning ijtimoiy-falsafiy asoslari” mavzusidagi tadqiqot ishida ekologik tolerantlikning falsafiy masalalariga e’tibor qaratgan. O.Musayev “O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida millatlararo munosabatlarni o‘rganishda millatning, xalqning tili, urf-odatlarini, turmush-tarziga oid xususiyatlari kabi belgilarini tadqiq qilgan.

Ammo, ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda bag‘rikenglikning axloqiy masalalari falsafiy tahlil qilingan. Biroq, millatlararo bag‘rikenglik madaniyatining axloqiy tamoyillari obyektiv omillari va subyektiv shart-sharoitlari doirasida tahlil etilgan. Aynan ushbu holat mavzuning ilmiy nuqtayi nazardan dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” mavzusidagi PYa-2020022811-raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda bag‘rikenglikning axloqiy paradigma va temperament mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

millatlararo bag‘rikenglikni rivojlantirishda insonparvarlik, halollik, saxovatpeshalik, ma’rifatparvarlik, sabrtoqatlilik kabi axloq tamoyillari va prinsiplarining nazariy modelini ishlab chiqish;

ko‘pmillatli davlat Yangi O‘zbekiston aholisining millatlararo madaniyat tizimidagi qadriyatli axloqiy bag‘rikengligini amaliy faoliyatda voqelikka aylanishining falsafiy mexanizmlarini ochib berish;

¹ Отамуротов С. Глобализация в национальной-культурной сфере. –Ташкент: O‘zbekiston, 2013.

millatlararo madaniyat xarakterini belgilovchi iqtisodiy, aksiologik, pedagogik usullarining o‘zaro bog‘lanishlarga aloqadorligini paradigmal konsepsiyasini yaratish;

madaniyatlararo muloqotda bag‘rikenglikni xalqning asrlar davomida to‘plagan tajribasi, axloqiy idealning umuminsoniy jamlanmasi, millatlar barqarorligining negizi ekanligini ko‘rsatish;

millatlararo bag‘rikenglik etnik guruh va qatlamlar yig‘indisi, jamiyatning tadrijiy hayot nuqtasidagi uyg‘unlik, ijtimoiy moslashuvning axloqiy umumlashmasi ekanligini asoslash;

axloqiy tamoyillar xulq-atvor va axloqiy idealning millatlararo madaniyatga xizmat qilish metodologiyasini aniqlash va insoniyatning bag‘rikenglikni axloqiy ongning ajralmas bo‘lagi sifatida borliqda rivojlanish evolyutsiyasini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda bag‘rikenglikning axloqiy tamoyillari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirish bilan bog‘liq bag‘rikenglikning axloqiy tamoyillariga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya va deduksiya, tuzilmaviy-funksional, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, mantiqiy, tarixiy, konseptual nazariyalarni qiyoslash, sotsiometrik (so‘roq, anketa), eksperiment kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

millatlararo bag‘rikenglikning rivojlanish tadrijiyligida markaziy o‘rin tutadigan etnomadaniy plyuralizm va insonparvarlik kabi axloqiy qadriyatlar bugungi postmodern jamiyatning muloqot madaniyati bilan o‘zaro dialektik aloqadorlikda ekanligi falsafiy asoslangan;

Yangi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishning xushmuomalalik, sabr-qanoat, kamtarlik singari ijtimoiy mezonlari va uning o‘zaro dialektik ta’sirlanishga asoslangan muloqot funksiyalari bag‘rikenglikning axloqiy tamoyillariga adekvat ekanligi isbotlangan;

millatlararo madaniyatning xarakterini belgilovchi axloqiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish darajalariga xos bo‘lgan integratsion muloqotning zamonaviy modeli falsafaning atributiv kategoriyalari orqali aniqlangan;

bag‘rikenglik fenomenining substansional asosini tashkil etuvchi “sabrlik”, “bir-biriga hurmat”, “o‘zaro hamjihatlik”, “murosayi-madora” kabi tamoyillarni yoshlar ongiga singdirishning hozirgi zamon xarakteriga mos bo‘lgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy-huquqiy paradigmalari takomillashtirilgan;

millatlararo madaniyat va bag‘rikenglikning axloqiy asoslari tenglik, birdamlik, muloqot kabi ijtimoiy g‘oyalarda o‘z aksini topgan holda davlat hokimiyati organlarining fuqarolar birligi va hamjihatligini qo‘llab-quvvatlashda ifodalanishi mantiqiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda bag‘rikenglik hamda axloqning o‘xshashlik va farq masalasiga e‘tibor qaratish lozimligi asoslab berilgan, shuningdek, ushbu tushunchaning milliy o‘ziga xos xususiyatlari nuqtayi nazaridan o‘zgarishi yoritib berilgan va yosh avlodda millatlararo madaniyatining rivojlantirish masalalari ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda millatlararo madaniyatning umuminsoniy ehtiyoj ekanligi, millatlararo madaniyatning xalqlar etnik tarkibida manfaatlar to‘qnashuvini oldini oladigan ijtimoiy muhit ekanligi asoslangan;

har bir millat vakilining o‘z madaniyati bo‘lishi, uni jahon ommasiga millatlararo madaniyat ekanligini ko‘rsatishi, bu borada yoshlarning axloqiy idrokidagi obyektiv va subyektiv unsurlarning falsafiy asoslari ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston millatlararo madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestasiya Komissiyasi tavsiya etgan ixtisoslashtirilgan jurnallarda chop etilgan maqolalar, yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari asosida ilmiy anjuman va davra suhbatlarida berilgan axborot hamda tavsiyalar, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi to‘g‘risida tegishli tashkilotlardan olingan xulosalar bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan koseptual g‘oyalar va umumnazariy xulosalar etika, madaniyatshunoslik, milliy g‘oya, falsafa, sotsiologiya fanlari doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni takomillashtirish jarayonida foydalanish bilan izohlanadi.

Mazkur ish xulosalarining amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan tavsiyalar va takliflar yoshlar muammolari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tomonidan xalqimizning millatlararo madaniyat, bag‘rikenglik madaniyati, milliy g‘oya, axloqiy qadriyatlarini targ‘ibot qilishda, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi, bir qator ilm markazlari hamda uning viloyat bo‘limlari ma‘rifiy dasturlarida, mahallalar, Milliy madaniy markazlar, Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi ijodiy birlashmalar va o‘quv-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi muassasalar faoliyatida foydalaniladigan o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarni tayyorlashda qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston millatlararo madaniyatining rivojlanish jarayonlariga oid ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

millatlararo bag‘rikenglikning rivojlanish tadrijiyligida markaziy o‘rin tutadigan etnomadaniy plyuralizm va insonparvarlik kabi axloqiy qadriyatlar bugungi postmodern jamiyatning muloqot madaniyati bilan o‘zaro dialektik aloqadorlikda ekanligiga doir taklif va tavsiyalardan 2020-2022 yillarda bajarilgan A-OT-2021-11-sonli “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining electron-transdisiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalar ijrosini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 21-fevraldagi 04/11-985-son ma‘lumotnomasi). Natijada,

amaliy loyixasini yanada takomillashtirish asosida O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlar o‘rtasida bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik madaniyatining o‘shishiga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishning xushmuomalalik, sabr-qanoat, kamtarlik singari ijtimoiy mezonlari va uning o‘zaro dialektik ta’sirlanishga asoslangan muloqot funksiyalari bag‘rikenglikning axloqiy tamoyillariga adekvat ekanligiga doir taklif tavsiyalardan Samarqand viloyati madaniyat boshqarmasining “2019-2025–yillarda O‘zbekiston Respublikasida millatlararo madaniyat bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish” Konsepsiyasi loyihasini va “2030–yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 3-apreldagi 04-12-05-1961-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatda millatlararo madaniyat asosida fuqarolarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirish, turli davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatlarida turli millat vakillari aks etgan zamonaviy komil inson konsepsiyasini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

millatlararo madaniyatning xarakterini belgilovchi axloqiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish darajalariga xos bo‘lgan integratsion muloqotning zamonaviy modeli falsafaning atributiv kategoriyalari orqali aniqlanganligiga doir taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi IX yo‘nalishida belgilangan “Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish” nomli 40 – bandi ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifatmarkazining 2023-yil 1-martdagi 02-22/165-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatda millatlararo bag‘rikenglik o‘ziga xos va betakror ijtimoiy muhit asosida rivojlanib borishiga, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarining axloqiy tafakkuri negizida millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilgan;

bag‘rikenglik fenomenining substansional asosini tashkil etuvchi “sabrlik”, “bir-biriga hurmat”, “o‘zaro hamjihatlik”, “murosayi-madora” kabi tamoyillarni yoshlar ongiga singdirishning hozirgi zamon xarakteriga mos bo‘lgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy-huquqiy paradigmalari takomillashtirilgan taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati madaniyat boshqarmasining “Yoshlarda millatlararo madaniyatni rivojlantirishning 2030–yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi” nomli loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 3-apreldagi 04-12-05-1961-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatda millatlararo madaniyat asosida fuqarolarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirish, turli davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatlarida turli millat vakillari aks etgan zamonaviy komil inson konsepsiyasini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

millatlararo madaniyat va bag'rikenglikning axloqiy asoslari tenglik, birdamlik, muloqot kabi ijtimoiy g'oyalarda o'z aksini topgan holda davlat hokimiyati organlarining fuqarolar birligi va hamjihatligini qo'llab-quvvatlashda ifodalanishi mantiqiy asoslanganligiga oid nazariy-amaliy taklif va tavsiyalardan "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2023-yilda efirga uzatilgan "Oltin halqa" ko'rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-fevraldagi 01-07/35-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan millatlar va elatlar o'rtasida millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, etnik-madaniy plyuralizm, do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va milliy totuvlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish, xususan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda ro'yxatida 16 ta maqola (jumladan, 11 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 225 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbekistonda millatlararo madaniyat rivojlanishini tadqiq etishning nazariy – metodologik masalalari**" deb nomlangan birinchi bobi uch qismdan iborat. Ushbu bobning "**Millatlararo madaniyat**", "**bag'rikenglik**" fenomenlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili" deb nomlangan birinchi paragrafida "Millatlararo madaniyat", "bag'rikenglik" va "bag'rikenglik madaniyati" tushunchalarining falsafiy jihatlari tahlili tadqiq etilgan. Bu tushunchalar tadqiqotda turli dunyoqarashlar, madaniy urf-odatlar vakillarining ziddiyatsiz va uyg'un hayot kechirish usullari va vositalarini izlash va qo'llash mavzusi har doim faylasuflar, madaniyatshunoslar, sotsiologlar, dinshunoslar, psixologlar, siyosiy, jamoat va din arboblarning e'tiborini tortib kelgan. Millatlararo bag'rikenglik madaniyati ana shunday e'tiborli va dolzarb masala hisoblanadi.

Millat va millatlararo madaniyat tushunchalarini tadqiq etgan nazariyotchi olimlar bu tushunchalarga o'z ta'riflarini berishgan. Jumladan, mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan "Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik)" nomli o'quv qo'llanmada "millat o'zligini anglagan, o'z ruhiyatiga ega odamlarning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan shakllangan birligi"¹ sifatida ta'riflanadi. Shu manbaning o'zida millat - yagona til, hudud, iqtisodiy mintaqa, umumiy madaniyat, milliy an'ana, qadriyat, manfaatlarni birgalikda himoya qilishning shakllanish jarayoni² sifatida e'tirof etiladi. Nemis faylasufi va sotsiologi Maks Veber "Millat tushunchasi" empirik umumiy sifatlar orqali aniqlab bo'lmaydigan va o'ziga xos qarashlarni o'zida jamlagan uyushmaga nisbatan ishlatilishini ta'kidlaydi³. Olimning ta'kidlashicha, yagona millatni davlatning siyosiy baho mezoni sifatida tushunish mumkin va ushbu davlatning yadrosi bo'lgan millat eng yuqori qadriyat sifatida saqlanib qolishi shubhasiz.

Millatlararo totuvlik – muayan hudud, davlatda turli millat vakllarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha⁴. Millatlararo madaniyat boy ma'nolarga ega, jumladan, nafaqat ko'p tilli qobiliyat, balki madaniy tushunish qobiliyati, madaniy integratsiya qobiliyati, ochiq va inklyuziv ruh va hamkorlik munosabati. Millatlararo madaniyat zamonaviy yoshlarning asosiy qobiliyati va insonni modernizatsiya qilish va har tomonlama rivojlantirishning muhim qismiga aylanib borishiga aytiladi.

Millatlararo madaniyat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, shakllanmaydi. Bu jarayonda millatlararo munosabatlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat, do'stlik va hamkorlikka asoslangan o'zaro munosabatlarning o'rnatilishi natijasida qo'yilgan maqsad sari intilish masalalarini qamrab oladi. Masalaning ikkinchi tomoni esa, hukmatning ushbu masalaga davlat siyosati darajasidagi e'tibori orqali amalga oshadi. Millatlararo madaniyat - ijtimoiy moddiy va ma'naviy shakllanish jarayonida ishlab chiqarish, hayot, o'qish, ta'lim kabi insoniy qadriyatlarga intilish faoliyatning garovidir va uning natijalari yoki boshqacha aytganda, ijtimoiy moddiy va ma'naviy jarayonda o'z ifodasini topgan insoniylik tuyg'ularidir. Millatlararo madaniyatning shakllanishi va uning natijalariga keladigan bo'lsak. Ta'lim, hayot, o'qish va ta'lim kabi faoliyat xususiyatlariga qarab intilish natijasida paydo bo'lgan deb hisoblash mumkin. Turli me'yorlarga ko'ra millatlararo madaniyatni qadimgi odamlar uyushmasidan urug' qabila bo'lib yashash tizimidan millatlararo madaniyat va zamonaviy millatlararo madaniyat, sharq millatlararo madaniyati va g'arb millatlararo madaniyati, diniy millatlararo madaniyat va dunyoviy millatlararo madaniyat, millatlararo totuvlik, millatlararo muloqot madaniyati kabi turli turlarga bo'lish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, millatlararo madaniyat tushunchasiga umumiy munozaralardan to'plangan tajribadan kelib chiqib ta'rif beradigan bo'lsak, "millatlararo madaniyat – bu muayan hudud, mintaqa, davlatda istiqomat qilayotgan

¹ Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). –Тошкент: Akademiya, 2006. – Б. 64.

² Ўша жойда.

³Троицкий К.Е. Нация и национальное государство в представлениях М.Вебер. Социологические исследования. 8. 2016. –С. 68.

⁴ Falsafa qomusiy lug'at. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2004. – B. 262.

turli millat va elatlar, etnik guruh vakillari, davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning bir turi bo'lib, unda ishtirokchilar bahamjihat tinch kelishuv asosida yashashi, millatlar munosabatida o'zaro kelishuv madaniyatidir” deya ta’rif berish mumkin.

Bag'rikenglik madaniyatiga ham ta’rif beradigan bo'lsak, bag'rikenglik madaniyatiga har bir insonning erkin yashash muhiti, dunyoqarashi, odobi, udumlari, hissiyoti, o'y-fikrlari, e'tiqodlari, amallariga nisbatan sabrli bo'lish va hurmat qilish madaniyati, deb ta’rif berish mumkin.

Bag'rikenglik madaniyati ko'p millatli jamiyat hayotida millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik tamoyillarining faol rivojlanishi hamda faoliyat ko'rsatishini anglatadi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida bag'rikenglik madaniyati ko'p jihatdan modernizatsiya jarayonlariga bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, bu fanatizmdan chekinib konstruktiv muloqot o'rnatishgacha ijobiy rivojlanish dinamikasi hisoblanadi. Modernizatsiya mevasi bo'lgan muloqotga asoslangan bag'rikenglik madaniyatining zamonaviy modeli ko'p millatli, ko'p dinli jamiyatning jadal ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun eng samarali ekanligini dunyo tajribasi yaqqol namoyon etdi.

Mazkur bobning **“Millatlar o'rtasida bag'rikenglikni shakllantirishda ijtimoiy muhit kategoriyasining o'rni”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida **millatlararo madaniyatning** bag'rikenglik (tolerantlik) jamiyat va ijtimoiy hayotga turlicha ta'sir qilib kelganligi, doimo sivilizatsiyaga o'z hissalarini qo'shib kelganligi tadqiq etilgan.

Ijtimoiy muhit nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarning uzluksiz barqarorligi, millatlararo bag'rikenglik madaniyatiga uzluksiz rivojlanishi uchun yaratilayotgan ijtimoiy muhitni ma'lum darajada ochiq va inklyuziv holga keltirdi. Taraqqiyoti e'tirof etilgan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi millatlararo bag'rikenglik jamiyatni qurish bo'yicha ba'zi asosiy masalalar to'g'risidagi yo'nalishlarida jamlangan bo'lib, u ijtimoiy fikrlash tendentsiyasiga rahbarlik qilish uchun millatlararo bag'rikenglikning qadriyatlar tizimiga rioya qilish, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar bir-birini hurmat qilish, xilma-xillikka toqat qilish va ijtimoiy mafkuraviy muhitni maksimal darajada shakllantirish darkor. Bunday madaniy qarash, shubhasiz, iqtisodiy rivojlanish tizim ostidagi millatlararo madaniyat bu jadal millatlararo madaniy rivojlanish davrining kelishini anglatadi.

Ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanishida ma'naviy muhit xalqning ma'naviy-ruhiy dunyosiga bog'liq hodisa sifatida jamiyatda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarning yangidan tarkib topishiga asos bo'lib, unda shaxs va maslakdosh shaxslarning ittifoqi, ahilligi muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyat “shaxslarning uyushgan majmuidir”¹. Shu o'rinda, ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanishida shaxs komponenti muhim o'rin tutadi. Millatlararo madaniyatni jamiyatda rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy muhit shaxs va jamiyat o'rtasidagi

¹Уткин А.И. Векторы глобальных перемен: анализ и оценки основных факторов // Полис. – Москва: 2000. - №1. –С. 64.

munosabatlarda vositachilik vazifasini bajaradi. Bu rol shaxsga ham, jamiyatga ham barobar ta'sir qilish xususiyatiga ega.

Ilmiy nazariy qarashlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, millatlararo madaniyatni rivojlantirishda bag'rikenglik va ma'naviy axloqiy muhit shaxs va jamiyat munosabatlarini, manfaatlarini uyg'unlashtirish asosida shakllanadi. Manfaatlari esa har doim ham ijobiy bo'lavermaydi, ularda salbiy tomonlar ham mavjud. Bu esa millatlararo bag'rikenglik muhitni shakllantirishdagi ijobiy va salbiy omillarni klassifikatsiya qilishga undaydi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi **“O'zbekistonda polietnik millatlararo madaniyatni rivojlantirishning axloqiy ildizlari”** deb nomlanadi. Unda millatlararo madaniyat subyekti va millatlararo bag'rikenglik obyektini o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakli, subyekt tomondan obyektning ijtimoiy-madaniy (tashqi belgilar, bayonotlar, xulq-atvor xususiyatlari) farqlarini qabul qilishga tayyorligi, ijtimoiy subyekt sifatida esa shaxs, ijtimoiy institut, jumladan, etnik, hamjamiyat, konfessiyaviy hamjamiyat, ijtimoiy guruh darajasida qabul qilishi o'rganilgan. Ya'ni, jamiyat uchun bir subyektini emas, balki ijtimoiy subyekt darajasida millatlararo madaniyatni qabul qilish, rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda yoshlar o'rtasida millatlararo munosabatlarni rivojlantirish fuqarolik jamiyati rivojida ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, taraqqiy etib borayotgan Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida qayd etish joiz. Millatlararo madaniyat va axloq nafaqat insonlarning o'zgarmas tabiati bilan belgilanadigan abadiylikka ega, balki milliy madaniyat xususiyatlari va ijtimoiy taraqqiyot natijasida shakllangan davrlarning madaniy xususiyatlari bilan belgilanadigan madaniy va zamonaviy xususiyatlarga egadir. Turli mamlakatlar va jamiyatlarning turli davrlardagi iqtisodiyoti, siyosati, madaniyati har xil xususiyatlarga ega, madaniy va ma'naviy o'zgarishlarning maqsad va usullari ham turli xil xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston ko'p millatli davlat sifatida o'zining ichki va tashqi siyosatini olib boradi. Respublika hududida istiqomat qilayotgan elat va millatlarning milliy madaniyatlari, udumlari, odatlari va an'analari mavjud. Turli xalqlarning milliy o'ziga xosligi va xatti-harakatlarining o'ziga xos tomonlarini bilish, tushunish, davlatimizning birligi va kuch-qudratini mustahkamlash, turli millat vakillarini bir g'oya ostida birlashtirish muhimdir. Aytish mumkinki, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida yashovchi xalqlar o'rtasida millatlararo va konfessiyalararo qulay yashash muhiti yaratilgan. Mazkur jarayonga mamlakatda turli millatlarning tarixiy merosini milliy va madaniy axloqiy an'analari bilan tanishish, bag'rikenglik muhitini yaratish, millatlararo va mintaqalararo hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan islohotlar sabab bo'lmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Millatlararo madaniyat shakllanishiga doir ijtimoiy-falsafiy va axloqiy konsepsiyalar”** deb nomlangan. Ushbu bobning

“Sharq va G'arb falsafasida shakllangan millatlararo madaniyatga doir qarashlarning axloqiy jihatlari” deb nomlangan birinchi paragrafida insoniyat butun Yer yuzi bo'ylab turli mintaqalarda yashar ekan, ularning olam haqidagi tasavvurlari, avvalo, shu muhitning ijtimoiy ta'sirida shakllanadi. Shu bois Sharq va G'arb xalqlarining ham falsafiy tafakkuri o'ziga xos turli millatlarning mintaq

ehtiyoj va manfaatlari negizida vujudga keladi. Bunday landshaftlarga mos millatlar o'zlarining madaniyatlarini yaratib boradi. Sovuq hududlarda yashaydigan millatlar madaniyati bevosita iqlimga parallel ravishda odamlarning isiqlikka intilishi bilan bog'liq holda madaniyatlarni rivojlantiradi. Ular issiq o'lkalar, jumladan, hindlar singari o'zlarining millatlararo madaniyatini san'at orqali keng va ochiq maydonlarda namoyish etishdan cheklanganlar. Yoki issiq bo'lgan mintaqalarda sovuqqa bardosh beradigan jarayonlar bilan bog'liq madaniyatlar deyarli ko'p shakllanmagan. "Har qanday ijtimoiy hodisaning mazmun-mohiyatini ilmiy tadqiq qilishda, eng avvalo, uning genezisidagi tabiiy-geografik, tarixiy-hududiy va ideologik manbalar o'z o'rnida, obyektiv ko'rsatilsa, natija salmoqli va xalq, jamiyat, davlat uchun samarali bo'ladi"¹. Shuning uchun Sharq va G'arb madaniyatlari bir-biridan farqlanuvchi ko'plab jihatlarga ega.

Har bir millat, elat va xalq o'zining tarixiy taraqqiyotida muayyan bir g'oyalari va mafkuralarga tayangan holda rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Bugungi millatlararo madaniyat Sharq va G'arb jamiyatlaridagi turli millat, elat va xalqlarning umumiy manfaatlarini o'zida ifodalab, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishi va maqsad-muddaolarini o'zida ifodalaydi. Bunday munosabatlarda, obyektiv qonuniyatlarni hisobga olinsa, millatlar o'zlarining milliy tillari, madaniyatlari, milliy an'analari, urf-odat va tarixiy tarkib topgan boshqa milliy xususiyatlarini tiklash, o'rganish va zamon talablariga javob beradigan qadriyatlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Faylasuflar J.Yaxshilikov va N.Muxammadiyev madaniyatning mohiyatini tadqiq etib, undagi milliylikdan ko'ra millatlararo madaniyat masalasiga asosiy e'tiborni qaratadilar. Ularningcha, "har xil madaniyatlarning tinch-totuv yashashi mumkinmi? Bu savolga hozircha yagona javob yo'q. Biroq ma'lumki, hozirgi dunyoda biron – bir milliy madaniyatning ustunlik qilishi maqsadga muvofiq emas. O'zoro bilish, tushunish, hurmat rivojlanishi, qadriyatlar va yutuqlarning o'zaro almashinish imkoniyatlarining ochilishi uchun madaniyatlarning muloqoti zarur"². Bundan ko'rinadiki, har bir jamiyat o'zining fuqarolari uchun millati va dinidan qat'i nazar umummilliylikka ega bo'lgan millatlararo madaniyatni rivojlantirishi lozim. Unda Sharq va G'arbgga xos bo'lgan o'zaro madaniyatlar hamkorligi, uzviyligi va taraqqiy etib borish mexanizmlari vujudga kelishi lozim.

Konfutsiy – insoniylik g'oyasini keng ma'noda kamtarlik, adolatpeshalik, og'ir-bosiqlik, obro'- e'tiborlilik, ochiq ko'ngillilik, sadoqat va samimiylik, odo-axloq chegarasidan chiqmaslik, urf-odatlar va marosimlarga rioya qilish kabi tushunchalarning falsafiy va mantiqiy talqini bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham uning asarlari har qanday zamonda dolzarb³ bo'lib kelayotganini ta'kidlash mumkin.

Mazkur bobning **"Millatlararo madaniyat rivojida Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-axloqiy g'oyalari"** deb nomlangan ikkinchi paragrafida Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashayotgan fuqarolarda o'ziga chegaradosh bo'lgan qo'shni davlatlarda bo'layotgan ijobiy yoki salbiy jarayonlarni kuzatish va

¹ Хаитов Ш. И. Ўзбекистон фалсафа тарихи. –Тошкент: Noshir, 2011. –Б. 110.

²Yaxshilikov L.Ya., Muxammadiyev N. Falsafa. –Samarqand, 2021. –B. 277.

³ Конфуций хикматлари. –Тошкент: А.Навоий, 2010. –Б. 3.

tahlil qilish imkoniyati mavjud bo'lgani holda bu jarayon u yoki bu mamlakatdagi boshqa millat vakillarining kayfiyatiga turli darajada ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. "Globallashuv sharoitida ko'pmillatli davlatlarning rivojlanish sur'atlari oshishi, shubhasiz, bu jarayonda ba'zi millatlar o'zlarining milliy xarakterga ega xislatlarini ko'proq kiritishlari, qo'shishlarini ko'ramiz. Ba'zi millatlar esa bu jarayonga nisbatan kam ulush qo'shadilar. Rivojlanishning umumiy sur'ati va miqyosi o'zgarmagan holda unda milliylik xislatlari, millatlarning faolligiga qarab, turlicha bo'lishini kuzatish mumkin"¹. Bunday holat har bir davlatning taraqqiyoti jarayonida o'zining ichki millatlararo madaniyatidagi aloqalarda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Jumladan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti uchun ham mustaqillikning dastlabki yillarida bunday jarayonlar kuzatilgan. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti mazkur masalaga jiddiy e'tirbor qaratishida yetarlicha asoslar bor. Bunga sabab Markaziy Osiyoda o'z manfaatlarini amalga oshirishga urinayotgan ayrim siyosiy yoki radikal kuchlar uchun millatlar o'rtasidagi munosabatlarga rahna solish natijasida ko'zlagan maqsadga erishishga urinishlari tabiiy. Bunday voqealar bizning mustaqilligimiz sharoitida bir necha marotaba sodir etilgani fikrimizni tasdiqlaydi. Shu sabab o'zining tinchligi va xavfsizligini, qolaversa taraqqiyotini ta'minlashni o'z oldiga qo'ygan har qanday davlat millatlar o'rtasidagi munosabatlar va madaniyatni ta'minlashga urinadi. Ko'p millatli davlatlarda ijtimoiy-etnik munosabatlaradagi uyg'unlikni ta'minlashda barcha etnik guruhlarining manfaatlarini e'tiborga olish katta ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, haqqoniy milliy manfaatlar bu muayyan millat vakillarining qo'llab-quvvatlayotgan talab va ehtiyojlari yig'indisidan iboratdir. Mana shunday qarashdagi milliy manfaatlar va ehtiyojlar boshqa millat vakillari manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak"². Bir millat "o'z ehtiyojlari va manfaatlarini bashqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobga ro'yobga chiqarماسligi lozim"³.

Markaziy Osiyo zaminida mavjud bo'lgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ilgari surilgan "ezgu amal, ezgu so'z, ezgu fikr" an'anaviy axloqiy konsepsiyalar tomonidan ham targ'ib qilinadi. Bu jumla orqali biz unda aks etgan yaxshilik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik an'anaviy axloqiy tushunchalar va xulq-atvorda ekanligini ko'rishimiz mumkin. "Zardo'sht pokiza axloqi, amalda sobitqadam, hayotda faol, kurashchan, ijodiy mehnat sohibi dindorni – insonni sharaflaydi; uning faoliyati, tafakkur ne'matiga ishonadi, ilm va axloqni inson hayotidagi mayoq"⁴, H.Homidiy deya takidlagan.

Mazkur bobning "**Millatlararo madaniyatni rivojlantirishning obyektiv omillari va subyektiv shart-sharoitlari**" deb nomlangan uchinchi paragrafida millatlararo madaniyatning obyektiv omillari va subyektiv sharoitlar o'rtasidagi bog'liqlik millatlararo madaniyat subyektning xulq-atvoriga turli ta'sirini himoya qiladi. U asosida Yangi O'zbekiston falsafasining madaniyatlararo madaniyatni

¹Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ интитути, 2009. – Б. 111.

² Тулинов Ж. Жамият фалсафаси. Бакалаврият йўналиши учун маърузалар матни. – Тошкент: 2001. – Б. 17

³ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. –Б. 74.

⁴ Ҳомидий Ҳ. Авестодан Шоҳномагача. –Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 41.

o'rganishning an'anaviy usuli sifatida millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning obyektiv omillari bo'lib xizmat qiladi. Bu adolatli va Yangi O'zbekiston falsafasining "madaniy obyektiv omillari va subyektiv shart-sharoitlar" tendensiyasini ko'rsatadi. Postmodernizm, millatlararo madaniyat nuqtayi nazaridan xilma-xillik qadriyatlarni ta'kidlaydi, turli millatlararo madaniyatlar o'z qadriyatlarida teng ekanligiga ishonadi va subektivlik an'anaviylikdan ustun turishni himoya qiladi. Yangi O'zbekistonda millatlararo madaniyat umuminsoniy madaniyatga tayanadi va teng madaniy qadriyatlar asosida millatlararo madaniyat falsafiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Ushbu jarayon millatlararo madaniyat falsafaning yangilanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda millatlararo munosabatlar tizimini milliy pedagogik jihatdan tadqiq qilgan A. Absalyamova millatlararo muloqotning tarkibiy elementi sifatida millatlararo aloqa tushunchasini ilgari suradi. Uningcha, insonlar "o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishning birgalikdagi faoliyat ehtiyojlari natijasida yuzaga keladigan va kamida uchta turli jarayonni o'z ichiga oladigan murakkab aloqa: ma'lumot almashinuvi, ishtirok etish (harakatlar almashinuvi) va ijtimoiy idrok (sharikni anglash va tushunish)"¹ mumkin. Bundan ko'rinadiki, jamiyatda turli millatdagi odamlarga tajriba, qadriyatlar, fikrlar, his-tuyg'ular hamda tajriba almashadigan muayyan munosabatlar tizimi sifatida qarash mumkin.

Millatlararo madaniyatning O'zbekistonda rivojlanishini ta'minlashning yana bir imkoniyati yoshlarga madaniyatning nozik qirralarini yetkazish hamda badiiy adabiyot va san'atni o'rgatishdadir. Zero, mazkur masala ajdodlarimiz asarlarida ham o'zining mukammal aksini topgan. "Alisher Navoiy xalqlar orasida do'stlik, insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etadi, uning qahramonlari turli mamlakat va millat vakillaridir: Farhod – Chin o'g'loni, Shirin – arman qizi, Shopur – eronlik, Ma'sud – hind, Layli va Majnun – arab, Iskandar esa yunon. Ularni yuksak insoniy qadriyatlar do'stlik, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat, muhabbat, sadoqat birlashtiradi"². Bundan ko'rinib turibdiki, har bir insonda, har bir millatda millatlararo madaniyatni rivojlantirishda obyektiv omillar va subyektiv shart-sharoitlar muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "**Millatlararo madaniyatning axloqiy tamoyillari va bag'rikenglikni rivojlantirish imkoniyatlari**" deb nomlangan uchinchi bobi uch qismdan iborat. "**Millatlararo madaniyatda axloq tamoyillarning in'ikosi va ijtimoiy xususiyatlari**" deb nomlangan birinchi paragrafda millatlararo munosabatlar turli millatlar, elatlar, etnik guruhlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida rivojlanadi. Boshqacha aytganda, ular o'rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlar ko'rinishida shakllanib taraqqiy etib boradi. Bunda ular o'rtasidagi tenglikni, muvozanatni, birdamlikni saqlay bilish muhim. Bunday vaziyatda jamiyat tarkibiy tuzilishining asosiy qismi hisoblangan

¹ Абсальямова. А.Г. Развитие межнациональных отношений студенческой молодежи в системе высшего педагогического образования. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Уфа 2007. –С. 148.

² Нурматова М.А., Абдуллаева Н.Б. Ахлокий ва эстетик маданият. Услубий қўлланма. –Тошкент: 2013.–Б. 4.

millatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy madaniy ehtiyojlarini ta'minlash, qolaversa, jamiyatda millatlararo munosabatlar bilan bog'liq jarayonlarni baholash, kuzatib borish, monitoring qilish va zarur bo'lganda qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalalarning ijobiy yechim topishi ijtimoiy hayotda kechadigan jarayonlarni tahlil qilish, ziddiyatli vaziyatlar paydo bo'lgan hollarda uni bartaraf etish imkonini beradi. Kishilik jamiyati ijtimoiy taraqqiyotida din va axloqning uyg'unligini ta'minlash, jamiyatda poklik, ezgulik, insoniylik, kamtarinlik, ibo, hayo singari yuksak insoniy tuyg'ular va fazilatlar dinda ulug'lanadi hamda bular, avvalo, oilada shakllanadi.

Axloqiy tamoyilning tarkibiy qismi sifatida bag'rikenglik etnik munosabatlar sohasida amalga oshiriladi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishdagi qiyinchilik bag'rikenglikni turli xil tushunish, bu madaniy an'analarning o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy shakllangan ong va inson xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Ushbu muammoning ko'plab tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, etnik nizolar birinchi navbatda ijtimoiy beqarorlik, aholining turmush darajasi pastligi va etnik guruhlarni ma'muriy-zo'ra'vonlik usulida birlashtirish bilan bog'liq. Biroq zamonaviy dunyoda etnik guruhlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarda bag'rikenglik tamoyilini amalga oshirish uchun odamlarning kelib chiqish jamoasining tan olinishi va rivojlangan ko'p millatli aloqalar bilan umuman insoniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar bilan mavjud. Bag'rikenglik tamoyiliga rioya qilish muqarrar xalqaro jarayonlarning muntazam ravishda mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha millatlar bilan uyg'un kombinatsiyasiga erishishga imkon beradi.

Mazkur bobning **“Millatlararo madaniyatning bag'rikenglikda namoyon bo'lish shakllari va axloqiy darajalari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida millatlararo madaniyatda bag'rikenglik hal qiluvchi rol o'ynashi, barkamol inson, jamiyat va demokratik siyosatning muhim konseptual elementi ekanligi qayt etilgan. Xo'sh, oddiy odamlarning millatlararo bag'rikenglik tushunchasi qanday paydo bo'lgan? Ushbu tadqiqot ishimizda millatlararo bag'rikenglik va siyosiy bag'rikenglikning konseptual ta'rifi va amal qilishini tahlil qilgandan so'ng, Markaziy Osiyoda millatlararo bag'rikenglik konsepsiyasining makro darajada kelib chiqishi haqida uchta faraz ilgari suriladi. Uchta gipoteza quyidagilardan iborat: millatlararo bag'rikenglik demokratik tizimlar sharoitida shakllanishi osonroq; iqtisodiyot va jamiyatni modernizatsiya qilish millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishga yordam beradi; avtoritar qadriyatlar qanchalik kuchli bo'lsa, millatlararo bag'rikenglik shunchalik past bo'ladi.

Millatlararo madaniyat deganda ijtimoiy fazilat va bag'rikenglik tushuniladi. Uning ahamiyati turli qarashlarga va xulq-atvor tendensiyalariga ega bo'lgan shaxslar va ijtimoiy guruhlarning bir jamiyatda tinch-totuv yashashiga imkon berishdadir.

Fikrimizcha, “Taraqqiyot strategiyasi” millatlararo bag'rikenglikni rivojlantirishda muhim konseptual huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ayniqsa, yoshlarga o'z imkoniyatlaridan keng foydalanib, kelajakda yuksak marralarga erishishlari uchun

do'stona, bag'rikenglik, millatlararo totuvlikda iliq oilaviy ahillik muhitini yaratib berish lozim.

Jahonning o'zgarishlar negizida yoshlar millatlararo madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy islohotlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Jamiyatda kundan kunga innovatsiyalarning yangi oqimlari paydo bo'lib, yoshlarning ilmiy izlanishlarida turli-tuman mexanizmlar vujudga kelmoqda. Xususan, dunyo yoshlari ma'naviy olamida yuksak axloqiy ideallarni rivojlantirish, voqelikka nisbatan ongli va jamoaviy yondashuv borasida yangicha mafkuraviy usullardan foydalanish hamda millatlararo madaniyatning bag'rikenglikda namoyon bo'lish xususiyatlarining axloqiy tizimlarini hamjihatlikni rivojlantirish dolzarb jarayonga aylanmoqda.

Mazkur bobning **“Axloq millatlararo madaniyatni tartibga soluvchi ijtimoiy norma sifatida”** deb nomlangan uchinchi paragrafida axloq normalari jamiyatning barcha sohalarida keng tarqalgan bo'lib, odamlarning xatti-harakatlarini cheklaydi va boshqaradi. Uning turli darajalari va turli sohaları juda ko'p axloqiy talab va qoidalarni talab etadi. Biroq jamiyatning barcha qatlamlaridagi axloq va uning me'yorlari qanchalik turlicha bo'lmasin, ularning barchasini asosiy talablar atrofida ishlab chiqish zarur. Bu axloqiy me'yorlarning o'rnatilishi va amalga oshirilishini yanada tartibli qiladi. Axloqiy millatlararo aloqalarning taraqqiyotiga ko'ra Sharqda inson axloqiy madaniyati, ichki ruhiy dunyosining tarbiyasi, millatlararo madaniyatini yuksaltirish bilan shug'ullanishgan.

Axloq har bir jamiyatda millatlararo madaniyatni tartibga soluvchi subyektiv tamoyillar ijtimoiy normalarni vujudga keltiradi. Birinchidan, ijtimoiy normalar insonning axloqiy subyektlarini va axloqiy qadriyatlarining maqsadini o'rnatishni talab qiladi. Axloqiy me'yorlarning ijtimoiy normalari haqida so'z yuritish bilan subyektivlikka erishib bo'lmaydi. Odamlarning o'zlari erkinlikning eng yuqori qadriyatiga ega bo'lib, bu birinchi navbatda, umumiy ma'noda shunday asosiy axloqiy me'yorni o'rnatishimiz mumkinligini, ya'ni hayotni hurmat qilish va sevishimizni belgilaydi.

Yoshlar millatlararo madaniyatining ijtimoiy funksiyalarini samarali amalga oshirish ma'naviy ehtiyojlarga mos keladigan axloqiy madaniyatni talab etadi. Uning yoshlarga ta'sir doirasi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi qarashlarni erkinlashtirib, siyosiy jarayonlarni boshqarishda madaniy muhitni tartibga soladi. Har bir yoshning ongida gnoseologik dunyoqarashni boshqarish asosida turli futurologik g'oyalarga nisbatan ilmiy bashoratning aniq mexanizmlariga tayanish ijobiy natija beradi. Buning uchun ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishda oila, mahalla, turli jamoat tashkilotlarning rolini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Islom dinining ulamolaridan biri M.Zamaxshariy aytganidek, “halol-pokiza kishi doimo xotirjam-u tinchlikdadir, birovg'a xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir”¹. Bundan xulosa shuki, biz yoshlarimizga tarbiyani

¹ Замахшарий Махмуд. Нозик иборалар. –Тошкент: Камалак, 1992. – Б.52.

singdirishda pok va diyonatli, vijdonlilik fazilatlarini milliy ruhda qaror topshirishimiz kerak.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatini yuksaltirish strategiyasi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobining. **“Yangi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni yuksaltirishning dunyoviy va diniy ko‘rinishlari”** deb nomlangan birinchi paragrafda Yangi O‘zbekistonda millatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ta‘minlashning asosiy tamoyillaridan biri bu millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishdir. Millatlararo muloqot madaniyati xalqlar va millatlarning o‘zaro munosabati jarayonidagi madaniyat bo‘lib, ijtimoiy faoliyat jarayonida yaqinlashishi va rivojlanishi asosida vujudga keladi. Bu esa xalqlarning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishdagi tengligini, bir-birlarining manfaatlarini va milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi.

O‘zbekiston sivilizatsiyasining vujudga kelishida besh ming yildan ortiq vaqt o‘tdi. Boshqa qadimiy sivilizatsiyalar bilan solishtirganda, O‘zbekiston sivilizatsiyasi o‘ziga xos madaniy ma‘noga va o‘ziga xos hayotiylikka ega. Uzluksizlikdan ko‘ra ko‘proq davomiylik (Yevropa bilan solishtirganda) bunday qadimiy sivilizatsiya madaniyat ostida, garchi Yangi O‘zbekiston makonining chekkalari nisbatan xiralashgan va harakatlanuvchi bo‘lsa-da, markaz har doim aniq va barqaror bo‘lgan. Garchi O‘zbekiston madaniyati turli xorijiy sivilizatsiyalar tomonidan e‘tirozga uchragan bo‘lsa-da, u har doim ancha barqaror va to‘plangan an‘anaga ega bo‘lgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqa sivilizatsiyasining asosiy yo‘nalishi bo‘lgan insonparvarlik murakkab va boy sivilizatsiya tizimi sifatida O‘zbekiston madaniyatining hayotiyligini ta‘minlagan. Biz O‘zbekistonning ichki va tashqi madaniyatlarini tahlil qilar ekanmiz, O‘zbekiston sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlariga e‘tibor qaratishimiz kerak. O‘zbek xalqining millatlararo madaniyatini tarixiy rivojlanish yo‘lini belgilaydi. Zamonaviy davrda G‘arb sivilizatsiyasining kuchli ta‘siri ostida ham Yangi O‘zbekiston sivilizatsiyasi tizimi va uning xususiyatlari muqarrar ravishda Yangi O‘zbekistonning madaniy va ijtimoiy evolyutsiyasiga, jumladan, qadriyatlar va axloqiy evolyutsiyaga, madaniyat tizimining o‘zgarishiga chuqur ta‘sir ko‘rsatishda davom etadi.

Mazkur bobning **“Yangi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatning bag‘rikenglikka asoslanishida axloqiy mezonlar”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida xalqning millat bo‘lishi uchun eng muhimi, o‘ziga xos madaniyatini shakllantirishdir. Har bir millatning madaniyati uning shakllanishi va bo‘linishining o‘zagi, milliy madaniyat esa urf-odatlar, odatlar, tafakkur, odatlar, urf-odatlarining to‘planishi, o‘ziga xos madaniyatni shakllantirishdir va tarixiy jarayonda to‘plangan ma‘naviy xususiyatlar. Milliy madaniyatni anglash milliy o‘zlikni qadrlash va o‘ziga ishonchning ma‘naviy manbai bo‘lib, milliy o‘ziga xoslik va jamiyat mavjudligini saqlab turuvchi, millat umumiy sivilizatsiyasining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi va muhim rol o‘ynaydigan rishtadir. Axloq va xulq-atvor qoidalarida va millat a‘zolari uchun qadriyatlarni yo‘naltirishda u quyidagilarni aks ettiradi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganidek, “...

bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi”¹.

Yangi O‘zbekistonning madaniy rivojlanish strategiyasida millatlararo madaniyatning bag‘rikenglikka asoslanishida axloqning mavqeyi va rolini har tomonlama o‘rganish uchun barkamol jamiyat qurish, globallashuv jarayonida uning tashqi dunyoga ochilishini yanada kengaytirish, har tomonlama milliy kuch-qudratni oshirish, va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Millatlararo madaniy rivojlanish strategiyasida bag‘rikenglikning maqomi va rolini har tomonlama axloqiy tafakkurning ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekistonda millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik masalalarni to‘g‘ri hal etishga doimo katta ahamiyat berib kelgan. Yangi O‘zbekistonning strategik masalalaridan boshlab millatlararo madaniyat va bag‘rikenglikni yaxshi tushunadi.

Mazkur bobning **“Taraqqiyot strategiyasi”da millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning axloqiy omillari**” deb nomlangan uchinchi paragrafida bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 60 foizi yoshlardan iborat bo‘lib, bunda asosan 30 yoshgacha bo‘lganlar hisobga olingan. Shu bois ham puxta ishlab chiqilgan yoshlar siyosatida xalqimizning bu demografik ko‘rsatkichlari muhim omil sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonning 74-maqsadida jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash²ga oid yo‘l xaritalari, normalar, konsepsiyalar, O‘zbekiston respublikasida millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ko‘rishimiz mumkin: “Xalqimizning ana shunday ishonchi va orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, fuqarolar va millatlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, xalqimizning ma‘naviy dunyosini yanada yuksaltirish, O‘zbekistonda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat’i nazar har bir vatandoshimizning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya etish, kafolatli daromad manbayi, tibbiy xizmatlar va uy-joy, sifatli ta’lim bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-etbori va nufuzini oshirishga

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 297.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

qaratilgan Yangi O‘zbekiston strategiyasini ishlab chiqdik”¹, deb ta’kidlaganlari bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarning isbotidir.

Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi” millatlararo madaniyatda o‘zbek madaniyatining mohiyatini o‘zida ifodalagan bo‘lib, millatlararo madaniyatga intilish ham o‘zbek madaniyatining an’anaviy fazilati hisoblanadi. “Taraqqiyot strategiyasi” Yangi O‘zbekistonning ertangi rejasi, undagi millatlar taqdiri, bag‘rikenglikni targ‘ibot mezonini vazifasini bajaradi. Bundan kelib chiqqan holda, jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini yanada yuksaltirish, bu borada yosh avlodga mavjud imkoniyatlaridan keng foydalanish, kelajakda yuksak marralarga erishishlari uchun do‘stona, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, oilaviy ahillik muhitini yaratib berishimiz lozimdir.

Millatlararo madaniyat umumiy madaniy hodisalarning tabiatini umumlashtirish sifatida bag‘rikenglik madaniyati ta’kidlanadi. Umumiy birlik narsalar ichidagi farqlarni ham tan oladi va o‘zaro yordam va bir-birini to‘ldirish orqali millatlararo madaniyatga erishadi. An’anaviy o‘zbek madaniyati konsepsiyasida bag‘rikenglik madaniyati odamlarning fikrlash va xatti-harakatlariga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbek xalqi inson va tabiat o‘rtasidagi hamda turli mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar me’yoriy va yo‘naltiruvchi rolga ega. Millatlararo madaniyatning axloqiy jihatlari o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uslubini eng yaxshi aks ettirishi mumkin.

XULOSA

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo madaniyatning tadrijiyligi, undagi millatlararo bag‘rikenglikning yoshlar axloqiy qiyofasi bilan o‘zaro aloqadorligi bo‘yicha quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Bugungi globalashuv jarayoni turli sohalarda bo‘lgani kabi millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik madaniyati masalalariga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, ushbu masala dunyodagi ko‘pmillatli davlatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekiston uchun ham mamlakat kelajagi va taraqqiyotini belgilab beruvchi rol o‘ynaydi. Muammoning global mohiyatini yana bir omil tasdiqlaydi, ya’ni, bir millat yoki bir etnik guruh vakillari yashaydigan davlatni topish mushkul.

2. Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlar o‘rtasida bag‘rikenglik madaniyatini oshirish masalasi xalqaro madaniyatni rivojlantirishning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki jahonning turli mintaqalaridagi millat va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar turlicha talqin qilinmoqda. Ularning mohiyatini anglashda fuqarolarimiz millatlar o‘rtasidagi hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

3. Millatlararo madaniyatda xalqlarning taqdiri, etnik guruhlar uchun mustahkam ishonch manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Uning turli millat vakillari bag‘rikengligini o‘zida mujassam etishi bevosita axloqiy tamoyillarning funksional ishlashini ta’minlaydi. Uning tadrijiy taraqqiyoti turli millatlar uchun istiqbolga

¹ Мирзиёев Ш. Инсон кадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари учун. –Тошкент: Ўзбекистон 2022. –Б. 9.

xizmat qilib, milliy ana'analarining saqlanishi, boyib borishi uchun o'ziga xos zamin vazifasini bajaradi.

4. Dunyodagi davlatlar ko'pmillatlilik xarakteri bilan xalqaro hamjamiyatda o'zlarining nufuzlarini yangi bosqichga ko'tarib bormoqdalar. Ular millatlararo madaniyatga parallel siyosiy tamoyillarni o'z jamiyatlarida tenglikka, adolatga, ma'rifatga tayanib joriylashi ijobiy samara beradi. Har bir millat vakili uchun individual va jamoaviy yondashuv xarakteri esa millatning ichki ko'zga tashlanmas jihatlarini ochibgina qolmasdan, uning keng ko'lamda rivojlanishiga yo'l ochadi. Bunda xalqlarning tarixiy zaminida shakllangan etnik birliklarga birlashib kelganligi, ijtimoiy muhitda moslashuvchanlik jihatlari muhimdir. Aytish mumkinki, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida yashovchi xalqlar o'rtasida millatlararo va konfessiyalararo qulay yashash muhiti yaratilgan.

5. Yurtimizdagi milliy-madaniy markazlar tomonidan ilgari surilayotgan asosiy tashabbus – ta'lim muassasalarini o'z ona tillarida ochish, ushbu ta'lim muassasalarida millatning azaliy qadriyatlarini dunyoga tanitishdir. Turli millat vakillari bir ta'lim maskanida aniq maqsadlarga ega ilm-fan sirlarini egallashi va madaniyatlarini o'rganishi o'ziga xos ijobiy yutuqdir. Bu borada mamlakatda istiqomat qilayotgan millatlar va elatlarning ma'naviy yuksalishi sezilarli darajada o'sayotganligini ko'rish mumkin.

6. Mamlakatimizda ko'p konfessiyalikning real ijtimoiy holat ekanligi va uning kelajakda ham saqlanib qolishini hisobga olgan holda O'zbekistonda diniy bag'rikenglik uchun to'la sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatda turli konfessiyalar o'rtasida totuvlik va bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash, millatlararo va dinlararo hamjihatlik yuzasidan takliflar va chora tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish maqsadida din ishlari bo'yicha qo'mita qoshida konfessiyalar ishlari bo'yicha jamoatchilik kengashi tashkil etilgan.

7. Madaniyatdagi umumiy qadriyatlardan tashqari biz millatlararo madaniyatlarning farqlari va xilma-xilligini ham hurmat qilishimiz kerak. Hozirgi vaqtda G'arbning kuchli madaniyati ta'sirida milliy madaniyat xalqning ongini yuksaltirish va yoshlarning shakllanishiga yordam berish kerak. Asrlardan asrlarga o'tgan o'zbek xalqining madaniyati jahon sahnasida o'z o'rniga egaligi, boshqa millatlar madaniyati bilan parallel, teng rivojlanayotganligi yutug'imiz hisoblanadi. An'anaviy o'zbek madaniyatining o'ziga xosligi va mansubligi tuyg'usi bu zaminda birga yashayotgan G'arb madaniyatini tan oladi, hurmat qiladi va ijobiy madaniyatni shakllantirish uchun turli madaniyatlarni birlashtiradi.

8. Millatlararo madaniyat, o'zida turli millatlar va madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni, ilm olamining barcha jabhalarida, madaniyat, yozuvlar va ko'plab boshqa sohalardagi o'zaro almashishni o'z ichiga oladi. Bu qaror, turli millatlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ahamiyatsiz tafovutlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Shu tarzda barcha millatlarni bir xil darajada qadr qilish, ular o'rtasida o'zaro muloqotlar va tartibot uchun imkon yaratish va aloqadorlikni rivojlantirishni talab qiladi. Millatlararo madaniyat nuqtayi nazaridan madaniyat mavhim tushuncha emas, har bir jamiyat uchun madaniyat konkret va realdir.

9. Ijtimoiy normalarning universallasuvi, eng avvalo, axloqiy me'yorlar mazmunining universalligini talab etadi. Yangi O'zbekistonning ko'pmillatli xalq

sifatidagi millatlararo madaniyat rivojiga katta e'tibor berayotganligi, shu hududda joylashgan turli millatlar madaniy meros obyektlarining o'z holicha saqlanishi jahon maydonida alohida ahamiyat kasb etadi. Turli millat vakillari yashab kelgan bu zamin bugun har qachongidan-da boy madaniyatlar maskaniga aylanib, dunyoning ko'plab mintaqalariga tarixiylikni namoyish etmoqda.

10. Mamlakatda millatlararo madaniyat, bag'rikenglik madaniyati, diniy bag'rikenglik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayoni tarixiy hamda bugungi Yangi O'zbekiston sivilizatsiyasining asosiy qismi qadimgi Turon zaminida paydo bo'lgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda ham aks etgan. U Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini vujudga keltirib, qadimgi Turon sivilizatsiyasi butun Osiyoga asta-sekin atrofdagi hududlarga tarqalgan. Markaziy Osiyo madaniyati ming yillar davomida O'zbekiston sivilizatsiyasining asosiy yo'nalishi bo'lib kelgan va hatto bir vaqtlar Markaziy Osiyo sivilizatsiya markaziga aylangan.

11. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida millatlararo madaniyatga bo'lgan qarashlar o'zgargan. Millatlararo madaniyat uzoq vaqt mavjud bo'ladigan ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligini anglab yetish mumkin. Ba'zi xalqlarda millatlararo madaniyat shakllanmagan bo'lsa ham ular boshqa millat vakillarini hurmat qila oladi. Bugungi globallashuv jarayoni asosida bag'rikenglikga asoslangan axloqiy jamiyat qurishda, albatta, millatlararo madaniyat jamiyat taraqqiyotining asosi sanaladi.

12. Yangi O'zbekistonning nazariy yutuqlari millatlararo amaliyotda, o'zbek jamiyatining rivojlanish talablari va xalqining intilishlarida aks etgan.

13. Millatlararo bag'rikenglikning falsafiy va axloqiy kuchlarini safarbar etish va integratsiyalashuvi hamda ushbu tadqiqotning har tomonlama va chuqur rivojlanishi bilan, albatta, ko'plab yangi qarashlar, yangi g'oyalar yuzaga keladi, ya'ni biz tushungan yoki muhokama qila boshlagan masalalar, g'oyalarni chuqur o'rganish va kengaytirish uchun hali ham bo'sh joy mavjud.

Tadqiqot ishiga doir qarashlar asosida quyidagi taklif va xulosalarga kelindi:

1. Yangi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan elat va millatlarning millatlararo madaniyatini o'rganishga qaratilgan zamonaviy usullar asosida uzluksizlik xarakteriga ega "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish;

2. Jahonda inson deb atalgan oliy qadriyatning tili, dini, e'tiqodi va nasl-nasabidan qat'i nazar yagona maqsad yo'lida birlashtira oladigan millatlararo madaniyat tizimini yaratish asosida insoniyatning kelajagini ilmiy yo'nalishlarda rivojlantirish dasturi va loyihalarini ishlab chiqish;

3. Jamiyatda millatlararo madaniyat asosida fuqarolarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirish, turli davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatlarida turli millat vakillari aks etgan zamonaviy komil inson konsepsiyasini ishlab chiqish;

4. Respublikada jamoatchilik fikrini o'rganish markazi orqali millatlararo madaniyatga doir sotsilogik so'rovnomalar jamlanmasini ishlab chiqish va muntazam aholi o'rtasida o'tkazib borish lozim;

5. Ommaviy axborot vositalari orqali "Millatlararo madaniyat" ruknidagi

teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar sonini ko'paytirish;

6. O'zbekistonda barcha milliy-madaniy markazlarning etnik birligi, qadimgi hayot belgilari, madaniyatidagi axloqiy tamoyillar jamlanmasini namoyish etish uchun milliy muzeylarni tashkil etish;

7. Dunyo xalqlari millatlararo madaniyatini o'zida jamlagan, xalqaro tan olingan madaniyatlar qatorida kichik, yo'qolib ketish arafasida turgan bag'rikenlikka xos madaniyatlar uchun "web-sayt" lari tizimini yaratish;

8. Jahon xalqlarining millatlararo madaniyatini o'zida mujassam etgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratish, ularni rang-barang tayyorlashni ko'paytirish, turli mediamoslamalardan foydalangan holda yosh avlodning qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy maqsaddir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.02.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА
РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ХОЛИКОВ ЮНУС ОРТИКОВИЧ

**ЭТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В РАЗВИТИИ
МЕЖЭТНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ**

09.00.02 – Философия форм сознания, культуры и практики (Этика)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.3.DSc/Fa195.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме) и размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и на информационно образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

| | |
|-------------------------------|--|
| Научный руководитель: | Гайбуллаев Отабек Мухаммадиевич доктор философских наук, профессор |
| Официальные оппоненты: | Самадов Ақтамкул Рафикович доктор философских наук (DSc), профессор Корабоев Усмон Хосилович доктор философских наук, профессор Урокова Ойсулув Жамолитдиновна доктор философских наук (DSc), доцент |
| Ведущая организация: | Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека |

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2024 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ф.02.02 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский аллея, дом 15, Тел. (0366) 239-13-87; факс: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz). Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Исторический факультет, 1-й этаж, комната 105).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский аллея, дом 15. Тел (0366) 239-13-87; факс: (8366) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2024 года.
(Реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2024 года).

Ш.Ш.Негматова
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

Х.А.Джуракулов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

А.Р.Самадов
Председатель научного семинара при Научном совете
при присуждении ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Феномен толерантности, занимающий важное место в культуре народов мира как духовное явление, в современных условиях глобализации требует анализа на основе конкретного философско-этического, педагогического и воспитательного, а также проверенного опыта. В постмодернистском обществе растет обеспокоенность по поводу общечеловеческих ценностей, кризиса духовной самобытности. Особую важность приобретает вопрос неправильного понимания смысла жизни, склонности к деструктивности, порождающей агрессивность во взаимоотношениях. Межэтническая культура сегодня формируется на основе глобальной тенденции постмодернистского пространства, в котором происходит самореализация личности и преодоление ею нравственных противоречий в контексте ее общечеловеческих потребностей. Развитие современной межкультурной коммуникации требует совершенствования плюралистических этических отношений, обеспечивающих самореализацию каждой личности.

Межкультурное общение и интеграция во всем мире важны и применяются к глобальным новостям, делая связи между разными странами и культурами сильнее и проще. Эти действия, в свою очередь, означают, что моральное мышление будет иметь важное значение в сочетании толерантности и культуры. Сегодня исследования толерантности показывают, что в условиях глобализации интеграция межэтнических культур становится все более активной, а их объединение становится все более ярким. Всё это служит развитию принципов толерантности в межэтнической культуре и анализу ее проблем. В частности, ни для кого не секрет, что в условиях нынешнего процесса глобализации становится актуальным вопросом повышения роли национальных, культурных и общечеловеческих ценностей в воспитании у молодёжи мировоззрения международной толерантности, их эффективного использования и оказания помощи нашим будущим преемникам, которые занимают лидирующие позиции во всех областях в нашу бурно развивающуюся эпоху.

В развитии межкультурной культуры в нашей стране уважение культуры межличностной нравственной толерантности, основанной на принципах просвещения и гуманизма, а также их принятие становится одним из основных направлений стратегического развития государства. Поскольку общество многонационально, развитие взаимопонимания между ними, обеспечение гармонии, определение конкретных приоритетов на этом пути и неустанный труд являются ключевыми факторами в обеспечении будущего нашей страны, определении ее развития. Безусловно, отраднo, что на этом пути под руководством Президента нашей страны проявляется энтузиазм в воспитании наших будущих поколений в качестве зрелых кадров, знающих все аспекты, смотрящих далеко вперёд, а главное, воплощающих в себе

качества быть лидером во всех сферах¹. Всем нам известно, что развитие уважения к другим культурам, укрепление межкультурного взаимопонимания, поддержки и внедрения в сознание общества развивается с каждым днем.

Настоящее исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 19 мая 2017 года № УП-5046 «О мерах по дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений и дружественных связей с зарубежными странами», от 15 ноября 2019 года № УП-5876 «Об утверждении Концепции государственной политики Республики Узбекистан в области межнациональных отношений» и в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23 мая 2017 года № ПП-2993 «Об организации деятельности Комитета по межнациональным отношениям и дружественным связям с зарубежными странами при Кабинете Министров Республики Узбекистан», а также в других нормативно-правовых актах по данной теме.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением республиканского развития науки и техники под названием «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их осуществления».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Созданные человечеством за века очаги науки в качестве современных высших учебных заведений сегодня направлены на пропаганду аксиологических аспектов культуры толерантности, проведение научных исследований, направленных на поэтапное выражение синергетического подхода в межличностных отношениях. В результате научных разработок в этих областях мы можем видеть, что научные исследования по укреплению межкультурного диалога на основе тонкого мышления, укреплению мира между различными этносами и их будущей судьбе систематически проводятся в ведущих научных центрах мира и высших учебных заведениях, в том числе в Institute of Humanities and Social Sciences (Польша), Leiden University Centre for the Study of Islam and Society (Нидерланды), University of Plymouth UK, (Англия), The Modern Aesthetic Education Research Center (Пекин, Китай), Western Michigan University, The University of Arizona (США), Санкт-Петербургском государственном университете, Московском

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. // 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 455.

² Диссертация бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи <https://www.youtube.com/>; <https://www.iz.ru/>; <https://www.kubnews.ru/>; www.dissercat.com/; <https://ru.wikipedia.org/>; <https://www.finland.fi/ru/>; <https://dic.academic.ru/>; <https://www.centraleurasia.org/>; <https://ru.wikipedia.org/>; <https://www.socionauki.ru/>; <https://www.labirint.ru/>.

государственном педагогическом университете (Россия), Национальном университете Узбекистана, Самаркандском государственном университете (Узбекистан).

В научных исследованиях, проведенных в мире по вопросу развития обеспечения непрерывности культуры межэтнической толерантности как важного нравственного критерия в развитии человечества, получены следующие научные результаты, в том числе: научно исследованы механизмы действия межэтнической толерантности при изучении этнического состава каждого региона, соблюдение государствами международных норм морали (Institute of Humanities and Social Sciences, Польша); раскрыты позитивные стороны толерантности в соответствии с религиозными убеждениями в общественной жизни (University Centre for the Study of Islam and Society, Нидерланды); выявлено нравственное влияние глобализации на культуру толерантности на основе литературы и искусства на основе социальных факторов (Public university in Plymouth United Kingdom); философские анализы раскрыли тенденции совместного развития культуры толерантности и нравственного идеала молодежи (The Modern Aesthetic Education Research Center, Пекин, Китай); выражена интеграция толерантности с реальностью в человеческом бытии, отражение в нравственных принципах существования (Colleges of WMU); научно исследовано, что принцип толерантности в мировых стандартах образования является главным критерием для содержания образования, области его применения в системе межкультурного диалога соответствуют философскому мировоззрению (Санкт-Петербургский государственный университет, МГУ им. М.В. Ломоносова); философски обоснованные элементы толерантности находят свое отражение в единстве человеческого нравственного идеала с межэтническим единством (Национальный университет Узбекистана, Самаркандский государственный университет, Узбекистан).

